


Bolalar Muqaddas Kitobi  
Tasvirlab beradi

Iso O'n Ikki  
Yordamchi  
Tanladi



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:  
Byron Unger; Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:  
E. Frischbutter; Sarah S.

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children  
[www.M1914.org](http://www.M1914.org)

©2015 Bible for Children, Inc.

Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.  
Lekin u sotilmaydi.



Iso ajoyib ishlar qilgan. U kasallarni shifolagan, qiynalganlarning yuragi va ongiga tinchlik bergan, hamda Xudo Kalomini o'rgatgan.



Olamon Iso oldiga yordam va shifo so'rab kelardi.



Iso Xudoning ishini qilishda Unga yordam berishi uchun ko'plab ergashuvchilari orasidan o'n ikki kishini tanlashga qaror qildi.





Muhim qaror qilish  
kerak bo'lganda siz  
Xudoga ibodat  
qilasizmi? Iso  
shunday qildi!  
Sokin tog'li o'lkada  
U Samoviy Otaga  
duo qildi. Iso  
kechga qadar  
ibodat qildi.






Iso butun uzoq  
va qorong' u tun  
ibodat qilib  
chiqdi.

Tongda Iso Unga ergashuvchilarni, ya'ni,  
Unga xizmat qilib, bo'ysinuvchilarni chaqirdi.  
Ularning orasidan Iso o'n ikki maxsus  
yordamchilarni, ya'ni,  
havoriylarni  
tanlab oldi.





Iso birinchi tangalan ikki shogird Simun Butrus va Idris aka-uka edilar. Iso birinchi marta ularni chaqirganda ular baliqchilik kasbini tashlab Unga ergashgan edilar.



Zabadiy o'g'illari Yoqub va  
Yuhanno ham baliqchilik  
to'rlarini tashlagan edilar.




Iso yana Filip, Bartolmey, Matto,  
To'ma, vatanparvar Simun, Alfey  
o'g'li Yoqub, Yoqub o'g'li Yahudo,  
hamda keyinchalik Isoga  
dushman bo'lgan Yahudo  
Ishqariyotni  
tanladi.



Isoning ta'lim berishicha,  
Uning aytganlarini bajarish  
mustahkam poydevorda  
uy qurishga o'xshaydi.  
Bunday uyni kuchli  
to'fonlar vayron  
qilolmaydi.



Ammo, Isoning So'zlariga bo'ysunmaslik uyni qumli poydevorda qurish kabidir. To'fon kelganida bunday uy vayron bo'ladi.



Isoning ba'zi amrlarini bajarish oson emas.  
"Bir chakkangga urganga ikkinchisini  
ham tut" deb ta'lib bergan Iso.  
Yana U "Dunmanlaringizni  
sevinglar" degan. Iso kabi  
yashash uchun insonlar  
Xudoning  
yordamiga  
muxtoj.



Iso yana yashirin joyda ibodat qilishni aytgan, ya'ni ba'zi dindorlarga o'xshab maqtanish uchun odamlar oldiga ibodat qilmaslikni uqtirgan.



Iso aytganki, Xudoga  
ishongan odamlarni  
Xudo kiyim va ovqat bilan  
taminlaydi. Xudo qushlarga  
yemish beradi, gul va  
o'simliklarni chiroyli ranglar  
burkaydi.






Shu kabi, Xudo  
unga ishonganlarning  
barcha muxtojliklarini  
ta'minlaydi.



Iso o'sha kuni  
O'zining yangi tanlagan  
yordamchilariga ko'p  
narsalarni o'rgatdi.  
Shundan so'ng, maxovga  
chalingan bir kishi Iso  
oldiga kelib, Undan  
shifo so'radi.





Iso unga shunday javob berdi, "Senga shifo beraman. Pok bo'lg'in." Isoning yordamchilari ko'z oldida maxov kishi shifo topdi. U tuzalib ketdi! Bunday ish faqat Xudoning O'g'li qo'lidan keladi. Yordamchilar ularning Ustozi

ajoyibligini bilishardi.



Iso O'n Ikki Yordamchi Tanladi

Hikoya Xudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Matto 4-7 boblar, Mark 1-bob,  
Luqo 6-bob

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."  
Zabur 119:130



Hikoya tugadi



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Xudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Xudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Xudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun xochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar siz Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Xudoga shunday deb ayting:

Qadrli Iso, Men Sening Xudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening farzanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Xudo bilan har kuni suhbatlashing!  
Yuhanno 3:16

